

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.A.Каримов</b> Философия калама –рациональная основа средневекового исламского мировоззрения.....	203
<b>D.E.Normatova</b> Islom islohchiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar.....	210
<b>B.E.Xusanov</b> Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili.....	215
<b>N.M.Axmadiyev</b> Yoshlarning axloqiy, ma’rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda keksa avlod tajribasidan foydalanishning ahamiyati.....	220
<b>N.N.Teshayev</b> Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari .....	223
<b>K.G’.Kamolova</b> Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o’rni .....	227
<b>M.M.Qaxxorova, B.Farfiev</b> Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari.....	232
<b>K.U.Sharipova</b> Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni.....	240
<b>S.A.Xayrullayev</b> Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari.....	244
<b>O’.X.Rajabov</b> Maslahat – konsensusning sinergetik omili .....	248
<b>Sh.T.Abbosova</b> Milliy g’oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch .....	251

---

СИЙОСАТ

<b>K.X.Avazov</b> Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	254
<b>A.A.Abdilxamedov</b> Huquqbuzarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati.....	261
<b>B.Y.Paluaniyazov</b> Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta’sir etuvchi tahdidlarning namoyon bo’lish xususiyatlari.....	265
<b>U.M.Kuranov</b> Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma’naviy – ma’rifiy ahamiyati .....	270

---

ТАРИХ

<b>Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov, K.D.Arziyev</b> O’zbekistonning Samarqand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv ishlari hisoboti.....	275
<b>M.X.Исамиддинов</b> Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития.....	309
<b>X.Raxmatillayev</b> Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar .....	314
<b>F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G’.Rahmatova</b> Mustaqillik yillarida Buxoro to’qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari .....	318
<b>N.S.Abdullayeva</b> Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O’zbekiston madaniy merosi namunalari.....	324
<b>S.B.Xakimova</b> “Xulosat ul-ahvol” asari xususida.....	329
<b>Ш.Т.Темиров</b> Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное наследие .....	332

**MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORO TO‘QIMACHILIK SANOATIDA  
MODERNIZATSIYALASHUV JARAYONLARI****ПРОЦЕССЫ МОДЕРНИЗАЦИИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ БУХАРЫ В  
ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ****MODERNIZATION PROCESSES IN BUKHARA TEXTILE INDUSTRY IN THE YEARS OF  
INDEPENDENCE****Utayeva Feruza Xolmamatovna<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)**Sharipova Parizod Quvvatjon qizi<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Buxoro davlat universiteti talabasi**Rahmatova Ferangiz G‘ayratjon qizi<sup>3</sup>**<sup>3</sup>Buxoro davlat universiteti talabasi**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Buxorodagi ip-gazlama kombinatining mustaqillik yillarida sanoat sohasida bo‘lgan o‘zgarishlari bayon etilgan. Respublika yengil sanoatidagi bir qator ijobiy o‘zgarishlar Buxoro to‘qimachilik sanoatiga ham sezildi. To‘qimachilik kombinatida modernizatsiyalashuv jarayoni bo‘ldi. Bir qator xorijiy davlatlar bilan to‘qimachilik taraqqiyoti sohaslarida hamkorlik shartnomalari imzolandi. Mustaqillik yillarida Buxoro to‘qimachilik sanoati tarixiga to‘xtalib o‘tilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье описаны изменения, произошедшие в промышленной сфере Бухарского пряжно-газового завода за годы независимости. Ряд положительных изменений в легкой промышленности республики ощущался и в текстильной промышленности Бухары. На текстильной фабрике шел процесс модернизации. С рядом зарубежных стран подписаны соглашения о сотрудничестве в области развития текстильной промышленности. Текстильной промышленности Бухары в годы независимости обсуждается его история.*

**Abstract**

*This article describes the changes in the industrial sector of the Bukhara yarn-gas plant during the years of independence. A number of positive changes in the republic's light industry were also felt in the textile industry of Bukhara. There was a modernization process in the textile factory. Cooperation agreements in the fields of textile development were signed with a number of foreign countries. To the textile industry of Bukhara during the years of independence its history is discussed.*

**Kalit so‘zlar:** Buxoro, to‘qimachilik, ip-gazlama, hamkorlik, fabrika, loyiha, paxta, majburiyat, mutaxassis, ishlab chiqarish.

**Ключевые слова:** Бухара, текстиль, прядение, кооперация, фабрика, проект, хлопок, обязательство, специалист, производство.

**Key words:** Bukhara, textile, spinning, cooperation, factory, project, cotton, commitment, specialist, production.

**KIRISH**

To‘qimachilik sanoati sohasida modernizatsiyalashuv bu – taraqqiyot talablariga muvofiq yangi texnologik qurilmalarni olib kirish va iqtisodiyotni barqaror sur‘atlarda rivojlantirish, mamlakatimizni dunyodagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga olib chiqish vositasidir [1].

Mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakat xo‘jaligini rivojlantirish uchun olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar to‘qimachilik sanoatida ham joriy etildi. Buxoroda to‘qimachilik sanoatining hududiy tarmoqlari tashkil etildi [2]. 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan “Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risi”da va 1994-yil 16-martda “Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra o‘rta va yirik to‘qimachilik kombinatlari tashkil etildi.

Buxoro to‘qimachilik kombinati va tumanlardagi filliallari 1994 – yildan boshlab xorijiy davlatlar bilan hamkorlik shartnomalari asosida yangi texnologiyalarni olib kira boshladi.

## TARIX

To'qimachilik sanoatiga yangi texnologiyalarning kirib kelishi yangi ish o'rinlarini tashkil etilishiga olib keldi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mustaqillik yillarida Buxoro to'qimachilik sanoatini ustuvor rivojlantirishga katta ahamiyat berilib, ichki va xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish, yangi to'qimachilik korxonalarini qurish, eskilarini qayta jihozlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, korxonalarda mulk shakllarini o'zgartirish, sanoatning barqaror rivojlanishini ta'minlash kabi jarayonlarga e'tibor qaratilganlik jihatlari ilmiy tahlil qilindi.

Mavzu yuzasidan Q.R.Rajabov, S.I.Inoyatov, K.J.Rahmonov, U.J.Rashidov, O.R.Rashidov, R.X.Maqsudov, I.S.Hayitov, S.B.Barotov, X.R.Raupov, B.T.Mirzaqulov, M.T.Xojiyev va K.X.Mastonov[3] kitoblarida Buxorodagi ip-gazlama kombinati va filiallarida to'qimachilik sanoati haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bu boradagi modernizatsiyalashuv jarayonlari va undagi muammo va yutuqlarga to'xtalib o'tilmagan. Shu o'rinda, to'qimachilik sohasi bo'yicha qilingan tarixiy tadqiqotlardan U.Xudoyqulov, M.O'roqov, R.Qilichev, E.Qobulov, X.Raupov, A.Soliyev, M.Nazarov va Sh.Qurbonov ishlarida[4], iqtisodchilar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan B.T.Bayxonov, S.Sh.Yusupov va A.A.Nizamovlar ishlarida O'zbekiston to'qimachiligi va geografik o'rni haqidagi ma'lumotlar qatorida Buxoro to'qimachiligiga ham qisman to'xtalib o'tilgan bo'lib, Buxoro to'qimachilik sanoati tarixiga to'xtalib o'tilmagan.

Xorijiy tadqiqotlardan mazmunan mavzuga yaqin izlanishlar K.A.Kochneva, E.M.Melnikova, O.V.Kazmin va T.S.Kochetkova ishlarida, to'qimachilik korxonalarini sonini ko'paytirish va to'qimachilik dastgohlarini zamonaviylashtirish va ishlab chiqarishni takomillashtirishga e'tibor qaratilgan bo'lib, Buxoroda to'qimachilik sanoatining mamlakat iqtisodidagi o'rni yoki xorijiy texnologiyalarni kirib kelishi va yangi ish o'rinlarining joriy etilishi haqida yoritilmagan.

Buxoro viloyati to'qimachilik sanoatidagi modernizatsiyalashuv jarayonlari haqida ma'lumotlar haqida qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borishni talab qilinadi. Va, aynan shu maqolada Buxoro to'qimachilik sanoatidagi tahlil qilinmagan jihatlari o'rganilib ilmiy tahlilda yozildi.

Maqolani yoritishda Buxoro to'qimachilik sanoati sohasida ishlagan rahbar kadrlar va ishchilarning suhbatlaridan olingan ma'lumotlardan, ya'ni suhbat metodidan foydalanildi. Maqola bayonida matbuot materiallaridan, arxiv materiallaridan va bevosida Buxoro shahrida va tumanlarida ishlab chiqarish jarayonlari olib borilayotgan fabrikalardagi arxiv ma'lumotlari ilmiy va qiyosiy tahlil qilish metodlari asosida yoritildi.

**NATIJAR VA MUHOKAMA**

1992-yil O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi va "Xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [3] qonunlar qabul qilingan. Bu qonunlar o'z navbatida Buxoro to'qimachilik sanoatida tub o'zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

O'zbekistondagi to'qimachilik sanoati korxonalaridagi dastgohlar talab darajasiga javob bermaganligi, ma'nan eskirganligi sababli, korxonalarni texnik jihatdan qayta qurish va rekonstruksiya qilish zaruriyati yuzaga chiqdi. Buxoro iqtisodiyotini rivojlanishida to'qimachilik sanoatidagi tarmoqlarini yangi texnika va texnologiya bilan ta'minlab butun jahon bozori mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan tovarlar ishlab chiqarishiga e'tibor qaratildi. Natijada, aholining ish bilan ta'minlanish darajasi va moddiy farovonligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etdi. Navbatdagi bosqich Buxoro to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash bilan birga, jahon to'qimachilik korxonalarini bilan hamkorlikni kengaytirishga qaratildi. O'zbekiston to'qimachilik sanoatida keng imkoniyatlar yaratish maqsadida yurtimiz fabrikalarida AQSh, Italiya, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Koreya va Chexiya firmalari bilan hamkorlikda ip-gazlama ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalar tashkil etildi.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlarning tasdig'i sifatida 1993–1994-yillarda chet el ilg'or to'qimachilik texnologiyalari Buxoro ip-gazlamalar ishlab chiqarish birlashmasiga keltirilgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasining 1994-yil 11-iyuldagi 11-son buyrug'iga asosan Buxoro ip-gazlamalar ishlab chiqarish birlashmasi Buxoroteks OAJga aylantirilgan. Buxoroteks ochiq aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasi davlat nazorat qo'mitasining 1994-yil 10-avgustdagi 513-sonli buyrug'i bilan Buxoropaxta uyushmasi negizida tashkil etilgan.

1994-yilda Buxoroteks o'z mablag'lari hisobiga, dunyoning eng nufuzli to'qimachilik mashinalari ishlab chiqaruvchi Shveysariyaning "Riter" firmasidan 2597 ta avtomatik tizimli yigiruv urchug'i, "Beninger" firmasining tandalash mashinasi, Olmoniyaning "Zukker Myuller" firmasining ohorlash mashinasi va to'quv dastgohlari keltirib o'rnatilgan. Bu texnologiyalar kimyoviy elementlar darajasini to'g'ri taqsimlagan, ishlab chiqarish unumdorligini oshirgan va mahsulot sifatini dunyo bozorida mahsulotlar bilan raqobat qila olishini ta'minlagan. To'qimachilik sanoatida 1991–1995-yillar mobaynida qayta loyihalash va korxonalarini moddiy rag'batlantirish davom etgan.

Buxoroteks 1994-yil zamonaviy to'quv dastgohlari o'rnatilgandan so'ng jahon andozalariga mos raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarila boshlagan. Respublikada 1996-yil yengil sanoatni rivojlantirish va mahalliy yengil sanoatga juda katta e'tibor qaratilgan bir davrda Buxoroteks korxonasi mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi o'rinlarga ko'tarilgani uchun "Oltin globus" xalqaro mukofoti bilan taqdirlangan [4].

Buxoroteks mamlakatimizdagi eng yirik sanoat korxonasi to'qimachilik sohasining yetakchilaridan biriga aylangan. 1995–1999-yillarda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan qo'shma korxonalar, ularning investitsiya hajmi va ishlab chiqarish quvvatlari chet el investitsiya hajmi bo'yicha eng ko'p paxta tolasidan ip yigirilgan va gazlamalar ishlab chiqarilgan [5].

Buxoroteks bilan Shveysariyaning "Riter" kompaniyasi o'rtasida iqtisodiy hamkorlik o'rnatilgan bo'lib, 1997-yil aprel oyida uskunalarni montaj qilish ishga tushirish va ip ishlab chiqaruvchi uskunalarni yetkazib berish uchun qiymati 5.04 mln Shveysariya franki hisobida shartnoma tuzilgan. Buxoroteksda Shveysariyaning "Riter" firmasining avtomatik yigiruv tizimi o'rnatilishi, korxonada yuqori sifatli dunyo andozalari talabiga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarish bilan birga, barcha mashina va qurilmalar kompyuterlar bilan jihozlangan va jarayonlar avtomatik boshqarilgan [6].

Shveysariyaning "Riter" firmasidan avtomatik yigiruv mashinasini ishlatishni o'rgatish uchun malakali mutaxassislar ham kelishgan. Shveysariyada ishlab chiqarilgan texnologiyalarni ish uslubini o'rgatuvchi mutaxassislar Buxoroteks fabrikalari bilan hamkorlik o'rnatib, o'z tajribalarini birinchi yigiruv-to'quv fabrikasining masteri R.S.Salomovaga va yigiruvchi-to'quvchi qizlarga yigiruv mashinalarini ishlatishni o'rgatgan [7].

Buxoro to'qimachilik sanoati fabrikalarining xorijiy hamkorlar bilan olib borilgan faoliyati import uskunalarning texnik imkoniyatlaridan samarali foydalanish va hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan. Buxoroteksning umumiy maydoni 76 gektardan ortiq bo'lgan 60 gektari ishlab chiqarishga moslashtirilgan. Birinchi yigiruv-to'quv va ikkinchi yigiruv-to'quv, ip-bo'yash va pardozlash fabrikalari ketma-ket joylashganligi uchun Buxoroteksda texnologiyalarni o'rnatish, nazorat qilish va ishlash jarayonida masofadan yutgan. To'qimachilik sanoat majmuasining shimoliy qismida yordamchi binolar va inshootlar joylashgan. Fabrikalar o'rtasidagi yo'l va yo'laklarni bog'lash maqsadida, hududda avtomobil yo'llari, piyodalar yo'laklari va asosiy yo'llar asfalt-beton qoplamalar bilan qoplangan. Ishlab chiqarish jarayoni va ishchilar uchun qulayliklar yaratilgan.

To'lqin Hikmatovich Barakayev bilan suhbat chog'ida aytilgan ma'lumotlarga ko'ra, ishchilarning olgan oylik maoshlari 1989–1994-yillarda 120 so'mdan 300 so'mgacha bo'lib, ishchilar uchun yaratilgan sharoitlar ham yaxshi bo'lgan. Birinchi yigiruv-to'quv fabrikasida 1994–2000-yillarda 5 ming 854 kishiga oylik maoshi yozilgan. To'quvchilarga ish tajriba va soatiga qarab 140 so'mdan 240 so'mgacha berilgan. Hisobchiga 140 so'm, kombinat direktori 270-300 so'm va yana ishchilarning ish sur'atlariga qarab yilida 4–5 marta mukofot pullari berilgan [8].

Buxoro to'qimachilik sanoati 1991–2000-yillarda viloyat iqtisodiyotida yetakchi o'rnini egallagan. Xomashyoning yetarli bo'lishi, raqobatlasha oladigan texnologiyalar mavjudligi va ish tajribasiga ega malakali kadrlarning mavjudligi to'qimachilik sanoati rivojiga sabab bo'lgan. 1997-yilda janubiy-sharqiy Osiyoda boshlangan iqtisodiy inqiroz sharoitida respublika yengil sanoati jahon bozorida o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lgan. Buxoroteksda ishlab chiqarish hajmi va eksportga mahsulot sotish miqdori ko'paygan. Yevropada paxta tolasini qayta ishlashda xarajatlarning doimiy oshib borishi va yerlarning qimmatligi, to'qimachilik sanoat korxonalarining inqiroziga sabab bo'lgan. 1997–2000-yillarda ushbu omillar sabab investorlarni O'zbekistonga jalb qilish imkoniyatlari bir muncha kengaydi. To'qimachilik sanoati mustaqillik yillarida respublika iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanganligi sababli, shuningdek, Buxoroteksda

## TARIX

texnik va texnologik qayta jihozlash ishlari samarasi o'laroq to'qimachilik salohiyatida o'sish tendensiyalari kuzatildi.

Buxoroteks mahsulotlarining asosiy iste'molchilari "O'zbekiyengilsanoat" uyushmasi, MDH va uzoq xorij bozorlari bo'lgan. Yuk tashish asosan avtomobil transportida va temir yo'l orqali amalga oshirilgan. Asosan 1994–2000-yillarda pardozlangan ip-gazlama, sochiq, tayyor kiyim-kechaklar va eksportbop kiyimlar ishlab chiqarilgan.

Buxoroteks to'qimachilik sanoatida yordamchi tarmoqlar ham muhim o'rin egallagan. Muhandislik yordami bu–issiqlik ta'minoti manbai "Buxoroenergomarkaz" korxonasi hisoblanadi. To'qimachilik sanoatining muhim tarmoqlaridan yana biri suv bo'lib, maishiy ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun issiq suv ishlatilgan. Yillik elektr energiya iste'moli 125978 t.kvt.soat bo'lgan Buxoroteksning elektr ta'minoti Buxoro elektr tarmoqlari korxonasi balansida bo'lgan. Elektr energiya Buxoroteksdagi dastgohlarni harakatini ta'minlovchi asosiy quvvati hisoblangan [9]. Buxoroteksdagi gaz ta'minoti bo'yicha 4 ta gaz taqsimlash bo'limi mavjud bo'lib, gaz binoda, pardozlash fabrikasining texnologik ehtiyojlarida, ta'mirlash mexanika zavodida hamda oshxonalarda ishlatilgan. Suv ta'minoti va kanalizatsiya bo'yicha 4 ta suv ta'minoti tizimi o'rnatilgan. Asosan suvdan kunlik ehtiyojda, yong'inga qarshi, texnologik ehtiyojlar uchun ishlab chiqarish qurilmalarida va siqilgan havoni sovutish uchun foydalanilgan. Kuniga o'rtacha iste'mol suv 16000 m<sup>3</sup> ni tashkil etgan. To'qimachilik sanoatida suvlar zararsizlantirilib paxta tolalariga yuborilgan.

Ishlab chiqarishdagi asosiy majmua bo'lgan birinchi yigiruv-to'quv va ikkinchi yigiruv-to'quv fabrikalariga 1998–2000-yillarda "Xakoba" (Germaniya), "Beninger" (Shveysariya), "Eliteks" (Chexoslovakiya) kabi yangi texnologiyalar o'rnatilgan bo'lib, yiliga 30 ming tonnagacha paxta tolasini qayta ishlangan. Buxoroteks tomonidan MDH respublikalari va uzoq xorijdan yordamchi materiallar, ehtiyot qismlar, kimyoviy moddalar, bo'yoqlar (90 foizga yaqin) import qilingan. Ish o'rinlar soni 2004-yil 1-yanvar holatiga 12762 ta kishini tashkil etgan, jumladan, rahbarlar 342 ta, mutaxassislar 135 ta, xodimlar 66 ta va ishchilar 12219 ta kishini tashkil etgan [10].

Bozor munosabatlari sharoitida Buxoroteks jamoasi ishlab chiqarish faoliyatini takomillashtirish, iste'molchilar o'rtasida talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish va assortimentini kengaytirish borasida yanada faol mehnat qilgan. To'qimachilik ishchilari o'z ishlarini yaxshi ko'rsatkichlar bilan yakunlashi ma'lumotlarda o'z tasdig'ini topgan. 2000-yil sakkiz oyda tovar ishlab chiqarish rejasi 24,3 milliard bo'lgan, lekin hajmi 29,5 milliard so'mdan ortiq mahsulot ishlab chiqarilgan. Buxoroteks korxonasida eksport-import salohiyati muntazam oshirib borilgan. Buxoroteksning ko'p mamlakatlarda joylashgan savdo markazlari bo'lgan va mana shu sakkiz oy davomida, 2000-yilning noyabr oyigacha 6 million AQSh dollaridan ortiq matolar, momiq sochiqlar eksport qilingan. Import qilingan inventarlari hajmi esa bir million dollarga teng bo'lgan.

Buxoroteks o'z filiallariga to'la moliyaviy mustaqillik berish bilan birga, ularning tarqalib ketmasligi uchun o'z tasarrufida qoldirgan. Buxoroteks filiallarga ilg'or chet el texnologiyalarini kiritish va investorlarni jalb etish ishlari ham olib borilgan. Bunday boshqarish tizimi yaxshi natijalar bergan. Buxoroteks tomonidan tashkil etilgan qo'shma fabrikalar tumanlarda faoliyat yuritib, aholini ish bilan ta'minlash va O'zbekiston iqtisodini rivojlanishida o'z hissasini qo'shgan. G'ijduvon yigiruv-to'quv fabrikasida 1995-yil A.S. Islomovga fabrikani boshqarish vazifasi topshirilgan. 1995 – 2000-yillar davomida bozor iqtisodiyoti talabidan kelib chiqib, fabrikani rivojlantirish uchun davlatdan katta kredit olingan. Bu mablag'lar o'z navbatida qo'shimcha ish o'rinlari va yangi zamonaviy texnikalarni olib kelinishiga sarflangan.

Qorako'lteks O'zbekiston-Amerika qo'shma korxonasi 2001-yili mart oyida ishga tushirilgan bo'lib, ushbu loyiha asosida paxtadan sifatli ip-kalava ishlab chiqaruvchi. Qorako'lteks qo'shma korxonasi yiliga 3800 tonna yuqori sifatli, dunyo bozorida raqobatbardosh paxta tolasidan ip ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Ko'p yillar davomida iqtisodiy o'zgarish jarayonlari, Qorako'lteks O'zbekiston-Amerika qo'shma korxonasini bankrot holatiga tushib qolishiga olib keldi. 2007-yil AQShdagi "Delfi" LLS kompaniyasi Qorako'lteksning bo'sh yotgan binolaridan birida, xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun "Poykent Tekstil" fabrika tashkil etgan. Bu yerda futbolka, mayka, ichki kiyim, bolalar va kattalar uchun keng turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Qorako'lteks moliyaviy muammolari sababli byudjet to'lovlaridan ancha qarzdor bo'lib qolgan. Mamlakatimiz tomonidan yengil sanoatning rivojlantirishda, ishlab chiqarilgan chora tadbirlar

amalga oshirila boshlagan. Yengil sanoatning rivojlanishi Qorako'lteksga ham taalluqli bo'lib, olingan kreditning muddatini 10 yilga uzaytirib berilgan.

2007-yillarda Poykent Tekstilning ko'rsatkichlari ijobiy tomonga o'zgarib, Poykent Tekstil fabrikasi MDH mamlakatlariga va boshqa xorijiy davlatlariga 1,5 million AQSh dollari miqdorida mahsulot eksport qilgan. Mahsulotni tayyorlashda 400 dan ortiq yigiruvchi, to'quvchi, pilliklovchi va chilangar ustalar mehnat qilganlar.

Olot to'quv fabrikasiga Abdunazarov Jumanazar Xudoynazarovich 1998-yildan boshlab rahbar etib tayinlangan. Olot to'quv fabrikasi 2000-yillarga kelib, ishlab chiqarilgan mahsulotni jahon bozorida sotish uchun xorijdan investitsiya kiritib, Shveysariyaning Riter to'qimachilik fabrikalari bilan shartnomalar tuzishni boshlagan. Buxoroteks tomonidan 2001-yil MChJ shaklda Olotteks qo'shma korxonasi tashkil etilgan. Olotteks korxonasi o'zining ishlab chiqarish faoliyatini, 2003-yil iyul oyidan boshlagan va Olot to'quv fabrikasining nomi o'zgartirilib, Olotteks O'zbekiston Shveysariya qo'shma korxonasiga aylantirilgan. Xorijiy investorlar ulushi 51% va Buxoroteks hissadorlik jamiyati ulushi 49 % ni tashkil qilgan. Xorijiy investorlar ulushi hisobiga 96 dona zamonaviy to'quv mashinalari fabrikaga keltirilgan. Asaka bankidan 4,5 million dollar kredit olinib, Germaniyaning Truchler firmasidan ip-yigiruv mashinalari keltirilgan. Zamonaviy ip-yigiruv mashinalarida sifatli xorijbop ishlab chiqarilgan mahsulotlar, xorijiy xaridorlarning e'tiborini torta boshlagan. Olotteks qo'shma korxonasining ishlab chiqargan loyihasini amalga oshirishda yetti million AQSh dollari sarflangan. Ishlab chiqarilgan loyiha amalda qo'llanilishi bilan ip-kalava va gazlamalar ishlab chiqarish yanada ortgan. Yigiruv-to'quv jarayonida turli tolali paxta iplari qayta ishlanib, bo'yash va pardozlash jarayonlaridan keyin tayyor holatga keltirilgan. Jahon talablariga mos keladigan sochiqlar, eni 90 sm dan 168 sm gacha bo'lgan matolar ishlab chiqarilgan. Ushbu ishlab chiqarish mahsulotlari jahon bozorida sotish uchun mo'ljallangan. Ishlab chiqarilgan mahsulotlari Belgiya, Germaniya, Polsha va Shveysariya mamlakatlariga eksport qilina boshlagan.

#### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Buxoro to'qimachilik kombinati jamoasi uzoq yillar nafaqat mamlakatimizda, balki xorijda ham ishonchli biznes hamkor sifatida yuqori o'rinda bo'lgan. Mustaqilligimizning dastlabki yillarida "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish" to'g'risidagi qator qonun va farmonlar qabul qilingan. Buxoroda jahon tajribalaridan kelib chiqib, tashkil etilgan kichik xususiy lashtirilgan to'qimachilik korxonalari Buxoroteks bilan shartnoma asosida tayyor mahsulot ishlab chiqara boshlagan.

Mustaqillik yillarida Buxoroteks yangi tarixiy bosqichga ko'tarildi. Buxoro to'qimachilik sanoatida xorijiy sarmoyalarga yo'l ochilgan va kichik xususiy lashtirishga keng imkon yaratilgan. Xorijiy davlatlardan zamonaviy to'qimachilik dastgohlari olib kelindi. Shveysariya, Germaniya, AQSh, Pokiston, Fransiya va Hindiston bilan hamkorlikda Buxoroteks va uning filiallaridagi fabrikalarda ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Yigiruv-to'quv fabrikalarida ish unumi oshirilib, xususiy tadbirkorlar tomonidan tashkil etilgan to'qimachilik fabrikalari aholi ehtiyojiga tez kirib borgan. Kichik qo'shma to'qimachilik fabrikalarida aholi ehtiyojiga qarab mahsulot ishlab chiqara boshlangan. Iqtisodiyotda yuz bergan o'zgarishlar Buxoroteksda ishlab chiqarishni sekinlashuviga va mahsulot ishlab chiqarishning kamayishiga olib kelgan. Deyarli 40 yillik tarixiy davrga ega bo'lgan Buxoroteks inqiroz holatiga tushib qolgan.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Пардаев М.Қ., Мамасоатов Т.Х., Пардаев О.М. Модернизация, диверсификация ва инновация - иқтисодий ўсишнинг муҳим омиллари. – Тошкент: Наврўз, 2014. – Б. 18. (Pardaev M.Q., Mamasoatov T.Kh., Pardaev O.M. Modernization, diversification and innovation are important factors of economic growth. - Tashkent: Navroz, 2014. - B. 18.)
2. Ҳамроев С.А. Тўқувчилик технологияси. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 7.( Hamroev S.A. Weaving technology. - Tashkent: Science, 2005. - B. 7.)
3. Раупов Х.Р. Ўзбекистон енгил ва озиқ-овқат саноатининг аҳолини истеъмол моллари билан таъминлаш тарихидан (1945-1965 йиллар). Монография. – Бухоро, 1997; Мақсудов Р.Х., Ҳайитов И.С. То'қимачилик тарихи. – Тошкент, 2015; Ражабов Қ.Р., Иноятов С.И. Бухоро тарихи. – Тошкент: Tafakkur, 2016. (Raupov H.R. From the history of the light and food industry of Uzbekistan providing the population with consumer goods (1945-1965). Monograph. - Bukhara, 1997; Maksudov R.H., Hayitov I.S. History of textiles. -Tashkent, 2015; Rajabov Q.R., Inoyatov S.I. History of Bukhara. - Tashkent: Tafakkur, 2016.)
4. Ўроқов М. Зарафшон воҳаси қишлоқ аҳолисининг хонаки тўқимачилик ва чеварлик хунарлари. (XIX асрнинг охири ва – XX аср бошлари). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган

## TARIX

диссертация автореферати. –Тошкент, 1993; Қобулов Э. Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида енгил ва озиқ-овқат саноатининг ривожланиш тарихи. Тажриба ва муаммолар (1946-1960 йй) Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Самарқанд: 1994; Қиличев Р. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошида Бухоро шаҳрида хунармандчилик. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Бухоро, 1997. (Orokov M. Home textiles and handicrafts of Zarafshan oasis villagers. (end of the 19th century and beginning of the 20th century). Dissertation abstract submitted for the degree of candidate of historical sciences. -Tashkent, 1993; Qabulov E. History of development of light and food industry in the southern regions of Uzbekistan. Experience and Problems (1946-1960) Dissertation abstract submitted for the degree of Candidate of Sciences in History. - Samarkand: 1994; Kilichev R. Crafts in the city of Bukhara in the second half of the 19th century - the beginning of the 20th century. Dissertation abstract submitted for the degree of candidate of historical sciences. - Bukhara, 1997.)

5. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг ташқи иқтисодий фаолияти тўғрисида” ги қонунга ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш ҳақида. // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашнинг Ахборотномаси. – Тошкент, 1992. 9 - сон. (About amendments and additions to the law of the Republic of Uzbekistan "On foreign economic activity of the Republic of Uzbekistan". // Bulletin of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent, 1992. No. 9.)

6. Muallifning M.B. Zokirov bilan shaxsiy muloqoti. 2021-yil 17-sentabr.( Author's M.B. Personal communication with Zakirov. September 17, 2021.)

7. O'zbekiston milliy arxivi, M – 8 - fond, 1 - ro'yxat, 160 - yig'ma jild, 78 - varaq.( National Archives of Uzbekistan, M - 8 - fund, 1 - list, 160 - collective volume, 78 - sheet.)

8. Татьяна Орлова. Перспективы легкой промышленности // Народное слово, 8 января 2000 года.( Tatyana Orlova. Perspektivy legkooy promyshlennosti // Narodnoe slovo, January 8, 2000.)

9. Muallifning R.S. Salomova bilan shaxsiy muloqoti. 2021-yil 22-noyabr.( Author's R.S. Personal communication with Salomova. November 22, 2021)

10. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1 - fond, 1 - ro'yxat, 546 - yig'ma jild, 2 - varaq.( State archive of Bukhara region, fund 1, list 1, volume 546, sheet 2.)

11. O'zbekiston milliy arxivi, M – 43 - fond, 1 - ro'yxat, 417 - yig'ma jild, 102 – varaq.( National Archives of Uzbekistan, M - 43 - fund, 1 - list, 417 - collective volume, 102 - sheet.)

12. Шабанова Н. Тридцать лет возраст зрелости. // Правда востока, 6 апреля 2004 года.( Shabanova N. Tridtsat let vozrast maturity. // Pravda vostoka, April 6, 2004.)